

MAKTABGACHA TA'LIMDA TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMINI JORIY ETISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Sotvoldiyeva A'loxon Mamajonovna

Farg'ona viloyati Beshariq tumani 59-son DMTT direktori

Annotatsiya. Maqolada inklyuziv ta'lim rasmiy ta'limda tushunchasi ancha kengroq. Bu ta'limda ko'proq o'qishda, o'rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv ta'limni chet el tajribasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutildi.

Аннотация. Абстрактный. В статье понятие инклюзивного образования в формальном образовании гораздо шире. Это образование в основном работает с детьми с ограниченными возможностями обучения. Предусматривалось предоставить возможности для создания условий для всестороннего интеллектуального, нравственного, эстетического и физического развития детей дошкольного возраста на основе зарубежного опыта инклюзивного образования.

Abstract. In the article, the concept of inclusive education in formal education is much broader. This education mainly works with children with learning disabilities. It was envisaged to provide opportunities to create conditions for all-round intellectual, moral, aesthetic and physical development of preschool children based on foreign experience of inclusive education.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, deklaratsiya, uydagi ta'lim, imkoniyati cheklanganlar, integratsion ta'lim, imkoniyatlar, maktabgacha ta'lim, jismoniy rivojlanish.

Ключевые слова: инклюзивное образование, декларация, домашнее образование, инвалидность, интегрированное образование, возможности, дошкольное образование, физическое развитие.

Key words: inclusive education, declaration, home education, disabled, integrated education, opportunities, preschool education, physical development.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muxtoj bolalarni me'yorda rivojlanishdagi bolalar bilan teng xuquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. BMT tomonidan 1948 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"da "Ta'lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi" ekanligi alohida e'tirof etilgan. "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" barcha insonlarning huquq va erkinliklarini kafolatlar ekan, bu Deklaratsiyaning barcha bandlari maxsus ehtiyojli insonlarga ham tegishliligi aniqlandi. Nogiron

shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlash va kafolatlash maqsadida BMT 1975 yilda “Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Deklaratsiyani qabul qildi. Mazkur Deklaratsiyada ta’kidlanishicha: “Nogironlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqi ularda tug‘ilishi bilan mavjud bo‘ladi. Nogironlikning kelib chiqishi, tabiati va jiddiylik darajasidan qat’iy nazar, fuqaro o‘z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga egadirlarkim, shu bilan birga ular mumkin qadar to‘laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega” (“Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Deklaratsiya, 3-modda). Xuddi shunday bolalarni huquqlarini muxofaza qilish maqsadida BMT 1989 yilda “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”ni qabul qildi. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” bolalarning huquqlarini hamma joyda himoyalash maqsadida ishlab chiqilgan inson huquqlari borasidagi halqaro shartnoma hisoblanadi. U qariyb butun jahon mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan 191 mamlakat ko‘ngilli tarzda zimmalariga “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” qoidalarini ma’muriy qonunchilik, sud va boshqa chora-tadbirlar yordamida hayotga tatbiq etish majburiyatini oldilar. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” kompleks va ko‘p qirrali xarakterda bo‘lib, bu barcha bolalar uchun inson huquqlarining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy singari jabhalarni ta’min etadigan yagona Konvensiyadir. Bu konvensiya qat’iy faoliyat ko‘rsatadi. Barcha hukumatlarni hamma bolalarning huquqlarini himoya etish uchun sa’y harakatlar qabul etishga chaqiradi. Shuningdek, bu Konvensiya yaxlitdir, chunki unda ta’kidlanishicha, barcha huquqlar muhim, mushtarak, bir-birlariga bog‘liq va tengdir. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” barcha bolalarning huquqlarini himoya qiladi. Mazko‘r Konvensiyaning 2-moddasida “Bolalar, ularning ota-onalari, boquvchilarining irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e’tiqodi, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy ahvoli, sog‘lig‘i, qanday holatda tug‘ilganliklari va boshqa holatlaridan qat’iy nazar kamsitishlarga mahkum etilmasiligi kerak”-deb qat’iy belgilangan. Alohida ehtiyojli bolalar ham sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda o‘z qobiliyat darajasida faoliyat ko‘rsatish, ta’lim olishi, kasb-xunar o‘rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta’lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalandilar, ijtimoiy hayotda teng xuquqliligini, o‘z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar.

Inklyuziv ta’limga kiritishning asosiy tamoyillari va ularning mazmuni Ta’lim tizimini joriy etish har doim ma’lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:



Inklyuziv ta’limning e’tirof etilishi.

Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo‘lishi tamoyili.

- ✚ Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.
- ✚ Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.
- ✚ Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.
- ✚ Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.
- ✚ Malakaviylik tamoyili.



Qirg'izistonda- inklyuziv ta'limni rivojlantirish tanlab olingan davlat maktablari va xususiy o'quv muassasalarida olib boriladi. Mutaxassislar guruhi ommaviy maktablarda ta'lim olish uchun imkoniyati cheklangan bolalarni tanlab oladi. Ularning bazasida o'qituvchilar, ota-onalar, mahalliy hokimiyat vakillari uchun uchta seminar, Ta'lim Vazirligi va

mahalliy ta'lim departament vakillari uchun respublika miqyosidagi konferensiya ham o'tkazilgan. Qozog'istonda 2003 yil «Maxsus ehtiyojli bolalarni korreksion ijtimoiy va tibbiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash haqidagi» Qonun qabul qilindi. Bu qonun asosida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berish, korreksion pedagogik ish olib borish maqsadida reabilitatsion markazlar, psixologo-pedagogik korreksiya xonalari, maxsus maktab va maktabgacha ta'lim tashkilot qoshida qisqa muddatli guruhlar tashkil etildi. Inklyuziv ta'limga kadrlarni tayyorlash uchun oliy ta'limda «Maxsus pedagogika», «Maxsus psixologiya» va «Maxsus metodikalar» [kurslari kiritildi](#).

AQShda inklyuziv ta'lim tajribasi -AQShda nogironlarga bo'lgan e'tibor faqat ta'lim tizimida emas. Bu yerda barcha jamoat binolari, yo'llar, transport vositalari va boshqa jamoatchilik inshootlari nogironlar foydalana olishi uchun maxsus vosita va sharoitlar bilan ta'minlangan. Masalan, har bir jamoat avtobusida nogiron aravachalari turishi uchun maxsus joy ajratilgan. Ularning avtobusga chiqishi va tushishini ta'minlash uchun ham transport maxsus texnologiya bilan jihozlangan. Bu kabi sharoitlarni binolarda va boshqa transport vositalarida ham ko'rish mumkin. Bularning barchasi mamlakatdagi nogironlarning jamiyatda barcha qatori teng huquqli



yashashlarini ta'minlash maqsadida federal qonunlar bilan amalga oshiriladi. Biz bu maqolada nogironlarga bo'lgan e'tibor mavzusining ta'lim tizimidagi tadrijiy rivoji haqida qisqacha ma'lumot berdik. AQSh ta'lim tizimida umumiy ta'limdan farqli shu kabi boshqa maxsus ta'lim turlariga ham ruxsat va imkoniyatlar berilgan. Masalan, amerikaliklar, agar xohlasa, farzandlarini umuman

maktablarga bermasdan, ularga o'zlari uyda ta'lim berishlari mumkin. Qonunan ruxsat berilgan va tan olingan bu ta'lim turi "Uy maktabi" deya ataladi. Bu haqda batafsil kelgusida bayon qilamiz.

Fransiyada inklyuziv ta'lim tajribasi –Fransiya Integrasiyalashgan tarbiyalanuvchi bilan ishlayotib, tarbiyalanuvchi psixologlari va maxsus pedagoglarni oz ichiga olgan ixtisoslashtirilgan yordamchi tuzilmalarga yordam sorab murojaat qilishlari mumkin. Jalb qilinayotgan xodimlar oziga xos sohada yoki ozining butun maktablarda esa faoliyatida vaqtincha yoki doimiy ravishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan oquvchilar hamda oddiy sinflarga integrasiyalashgan, rivojlanishda nuqsonlari mavjud bolalarga yordam korsatishlari lozim. Mutaxassislar turli departamentlardan (sogliqni saqlash, ijtimoiy masalalar, talim) jalb qilinishi mumkin. Ulardan har biri qisqa yoki uzoq muddatda tarbiyalanuvchiga yordamlashadi hamda maktabgacha ta'lim xodimlariga komaklashadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir. Nuqsoni bor bolalarni har tomonlama tarbiyash orqali ularni ona-Vatanga, tabiatga nisbatan go'zallikni his etishga, tafakkurini rivojlantirishga, bolalarning talab-ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlash. Pedagogik ta'lim innovatsiyon klasteri, 1(1), 350-352.
2. Ibadullayeva, S. N., Masaliyeva, S. (2022). Inkluyziv ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish omillari. Inklyuziv ta'lim, 1(2), 111-113.
3. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Nogironligi bo'lgan ota-ona qaramogida bo'lgan yetim bolalarni ijtimoiylashtirishning metodik klasteri. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 6(1), 280-286.
4. Sh.N.Ibadullayeva magistrlik dissertasiya "Ta'lim klasteri asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning samarali omillarini aniqlash"2022 y.
5. D.S.Qaxarova "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil.